

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**
Davlat oliy ta'lim tashkiloti

70510105 – Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (biologiya)
Magistratura



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

**70510105 – Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi
(biologiya)**

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: ABDULLAYEV ISKANDAR FATXULLAYEVICH

Yangi O'zbekiston Universiteti

falsafa doktori (PhD), dotsent



A'zo: MARK STEPHEN DAVIES

University of the Commonwealth Caribbean

fan doktori (DSc), professor

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260008
Xulosa raqami	585
Xulosa sanasi	31.05.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Samarqand viloyati, Samarqand shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-uy. Guvohnoma: MAS № 0000044, 05.06.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (biologiya)
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	70510105
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000044, 05.06.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	70510105 – Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (biologiya)
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	70510105 – Methodology of Teaching Exact and Natural Sciences (Biology)
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	70510105 – Методика преподавания точных и естественных наук (биология)
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	120 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	2 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	7-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Pedagog-tadqiqotchi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	6 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Samarqand viloyati, Samarqand shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha o'tkazilgan ekspert tahlili natijalariga ko'ra, universitetda 70510105 – Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (biologiya) magistratura ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy tuzilma, strategik rejalashtirish, ichki sifatni ta'minlash, monitoring, manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik hamda mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olish mexanizmlari shakllantirilgan. Ta'lim dasturini amalga oshirishga mas'ul tarkibiy tuzilmaning vakolatlari va funksiyalari aniq belgilangan bo'lib, istiqbolli rivojlanish rejasi universitetning strategik maqsadlari bilan uyg'unlashtirilgan. Ta'lim metodikasi yo'nalishidagi magistratura dasturi uchun pedagogik va ilmiy-tadqiqot salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan boshqaruv modeli muhim ahamiyat kasb etadi. Ichki sifat monitoringi tizimi hamda manfaatdor tomonlar ishtirokini ta'minlash mexanizmlarining mavjudligi ijobiy baholanadi. O'tkazilgan ekspert tahlili natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi muvofiq deb baholanadi, chunki ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur institutsional asoslar shakllantirilgan.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha ko'rib chiqilgan materiallar ta'lim dasturining institutsional tartibda tasdiqlanganini ko'rsatadi. O'quv reja, ishchi o'quv reja va sillabuslar Universitet Kengashida ko'rib chiqilgan hamda ta'lim dasturining kodi, nomi, o'qitish tili va davomiyligi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan. Dastur maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari va kompetensiyalari Davlat ta'lim standartlari hamda Milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiq shakllantirilgan. Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (biologiya) yo'nalishi uchun biologiya fanining mazmuni bilan pedagogik metodikaning uyg'unligi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bitiruvchi biologiya sohasini chuqur egallashi bilan birga uni samarali o'qitish metodlarini ham

puxta o'zlashtirishi lozim. Ta'lim dasturi mazmunida mazkur ikki komponentning uzviy uyg'unlashtirilgani ijobiy baholanadi. Fanlarning izchil joylashtirilgani magistrantlarning kasbiy-metodik kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini ta'minlaydi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim dasturi mazmuni bo'yicha 2-bob talablari muvofiq deb baholanadi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha o'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, o'quv rejalari va fan sillabuslari belgilangan talablar asosida ishlab chiqilgani aniqlanadi. Ular Milliy malakalar ramkasi, Davlat ta'lim standarti, kasbiy standartlar, malaka talablari hamda ta'lim dasturining kutilayotgan o'quv natijalari bilan uyg'unlashtirilgan. O'quv jarayonini tashkil etish, o'qitish metodlari va baholash tartiblari ta'lim dasturining maqsadlariga muvofiq shakllantirilgan. Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (biologiya) magistratura yo'nalishi uchun pedagogik amaliyot, ilmiy-tadqiqot faoliyati hamda zamonaviy o'qitish texnologiyalarining o'quv jarayoniga integratsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur komponentlarning ta'lim dasturida nazarda tutilgani ijobiy baholanadi. Baholash tizimining shaffofligini ta'minlovchi mexanizmlar hamda akademik halollikni ta'minlash tartiblarining mavjudligi ta'lim jarayonining ishonchliligini oshiradi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan o'quv jarayoni va baholash tizimi muvofiq deb baholanadi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob bo'yicha o'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, universitetda qabul jarayoniga oid ochiq axborot taqdim etish mexanizmi shakllantirilgan. Rasmiy veb-saytda "Qabul" bo'limi, magistratura bo'yicha ma'lumotlar, qabul nizomi, qabul kvotalari, zarur hujjatlar ro'yxati, qabul monitoringi hamda maslahat markazi faoliyatining yo'lga qo'yilgani abituriyentlar uchun shaffof va teng axborot muhitini ta'minlashi nuqtai nazaridan ijobiy baholanadi. Qabul parametrlarining universitetning mavjud imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirilgani, shuningdek, talabalar harakatini (o'qishni ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish) tartibga soluvchi ichki hujjatlarning mavjudligi aniqlanadi. Magistrantlarni akademik, ilmiy va ijtimoiy yo'nalishlarda qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining mavjudligi ular uchun qulay ta'lim va ilmiy-tadqiqot muhitini yaratadi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra,

ekspert komissiyasi tomonidan talabalar faoliyati yo'nalishi muvofiq deb baholanadi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha taqdim etilgan professor-o'qituvchilar bilan ta'minlash rejasiga ko'ra, mazkur magistratura ta'lim dasturini amalga oshirish uchun jami 8 nafar professor-o'qituvchini jalb etish rejalashtirilgan bo'lib, ular uchun 2,25 shtat birligi ajratilgani aniqlanadi. Mazkur ko'rsatkichlar ta'lim dasturi ehtiyojlariga mos kadrlar bazasi shakllantirilganini ko'rsatadi. Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (biologiya) yo'nalishida professor-o'qituvchilarning biologiya sohasi bo'yicha ilmiy salohiyati bilan bir qatorda pedagogik-metodik tajribaga ega bo'lishi ta'lim sifatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Shu bois kadrlar tarkibining mutaxassislik profiliga mosligi ijobiy baholanadi. Kadrlar salohiyatini rivojlantirish, malaka oshirish hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining rejalashtirilgani magistratura dasturining ilmiy komponentini samarali ta'minlashga xizmat qiladi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan inson resurslari yo'nalishi bo'yicha 5-bob talablari muvofiq deb baholanadi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha o'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, universitetda mazkur magistratura ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur o'quv auditoriyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan xonalar, biotexnologiya laboratoriyalari hamda IN VITRO ilmiy-amaliy laboratoriyasi mavjudligi aniqlanadi. Mazkur moddiy-texnik baza magistratura bosqichidagi ilmiy-tadqiqot faoliyati va amaliy tayyorgarlikni tashkil etish uchun yetarli deb baholanadi. Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (biologiya) yo'nalishi uchun zamonaviy biologiya va biotexnologiya laboratoriyalarining mavjudligi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki metodik tayyorgarlik biologiya fanining mazmunini amaliy jihatdan o'zlashtirish bilan uzviy bog'liq. IN VITRO ilmiy-amaliy laboratoriyasining mavjudligi magistrantlarning ilmiy-tadqiqot faoliyati uchun zarur amaliy muhitni yaratishi nuqtai nazaridan ijobiy baholanadi. Axborot-resurs markazi hamda raqamli ta'lim muhitining mavjudligi o'quv jarayonini axborot va texnologik jihatdan qo'llab-quvvatlaydi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi muvofiq deb baholanadi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilab borish maqsadga muvofiq.
- ✓ Biotexnologiya va IN VITRO laboratoriyalari resurslaridan magistrantlar ilmiy-tadqiqot faoliyatida foydalanishni kengaytirish tavsiya etiladi.
- ✓ Zamonaviy o'qitish texnologiyalari va xalqaro pedagogik-metodik tajribani o'quv jarayoniga to'liqroq tatbiq etish maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilab borish.
- ✓ Biotexnologiya va IN VITRO laboratoriyalarini magistrantlar tadqiqot ishlariga faol jalb etish.
- ✓ Professor-o'qituvchilar ilmiy va pedagogik-metodik salohiyatini oshirish.
- ✓ Zamonaviy o'qitish texnologiyalari va xalqaro tajribani o'quv jarayoniga tatbiq etish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, "Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti" davlat muassasasida 70510105 – "Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (biologiya)" magistratura ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar kompleks tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, dasturni ochish va amalga oshirish uchun zarur tashkiliy tuzilma, strategik rejalashtirish va ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari, malakali kadrlar rejasi (8 nafar professor-o'qituvchi, 2,25 shtat birligi) hamda biotexnologiya va IN VITRO laboratoriyalari bilan ta'minlangan moddiy-texnik baza shakllantirilgan. Tashkiliy-boshqaruv, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, talabalar faoliyati, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot yo'nalishlarining barchasi belgilangan mezonlarga muvofiq deb topildi. Aniqlangan ayrim jihatlar dasturni amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydigan, asosan takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xarakterga ega. Umuman olganda, ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya

mezonlariga mos keladi. Ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim dasturi MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	05.06.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	2-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

